

FILMONIMLAR LINGVISTIK FENOMEN SIFATIDA: FILM NOMLARINING TARJIMA MUAMMOLARI

Umarova Dilafruz Razzakberdiyevna

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: dilafruz.umarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada film sarlavhalarining lingvistik, strukturaviy va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, filmonimlarning tarjima jarayonidagi o‘ziga xos muammolari, madaniyatlararo kontekstdagi roliga e’tibor qaratiladi.

Kalit so’zlar: *Filmonim, film sarlavhasi, tarjima, funksional tahlil, onomastika, madaniyatlararo kommunikatsiya*

Har qanday badiiy asarning nomi murakkab til birliklaridan biri bo‘lib, u ikki asosiy xususiyat bilan ajralib turadi: bir tomondan, mustaqillik va ma’no jihatidan yaxlitlik, ikkinchi tomondan esa - mazmun bilan bog‘liqlik, ya’ni u tegishli bo‘lgan asar kontekstida shakllangan bo‘ladi. Badiiy filmlar sarlavhalari ularning strukturaviy-semantik va funksional-pragmatik xususiyatlari, shuningdek, film boshqa tilga mansub bo‘lgan holatlarda - madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan ham katta qiziqish uyg‘otadi. Tarjima qilingan film nomlari esa, o‘z navbatida, belgi va mazmun o‘rtasidagi chuqur aloqalarni, shu bilan birga, madaniy o‘ziga xoslik bilan belgilangan, global til tizimidagi o‘zgarishlar hamda jamiyat va siyosatdagi zamonaviy siljishlarni yaqqol aks ettiradi.

Sarlavha - bu asarda amalga oshiriladigan mazmun haqida ilk signaldir, u asar asosiy g‘oyasi yoki mavzusini qisqacha ifodalaydi. Sarlavhani aniqlash unchalik murakkab emas. Masalan, S.I. Ojeqov sarlavhani “muayyan asar yoki uning alohida qismlarining nomi” deb ta’riflaydi. [5; 75]

Film sarlavhasi esa o‘z funksiyalari jihatidan badiiy matn nomidan unchalik farq qilmaydi. L. Cherkasskiy bu holatni shunday izohlaydi: “Sarlavha asarning mavzusini, falsafiy yoki ijtimoiy g‘oyaviy yadrosini bildiradi, undagi hissiy kayfiyatni belgilaydi, voqealar sodir bo‘ladigan joy va harakatni ko‘rsatadi, shuningdek, kelajakdagi syujetda muhim o‘rin tutadigan detalni ajratib ko‘rsatadi, ba’zan esa butun asarning ko‘lamini xayolan chegaralab beradi...” [7; 225-230]

Rus tilshunosi Podimovaning fikriga ko‘ra film sarlavhasi - bu kinokartinaning aksidir, u boshqa egalik nomlari kabi filmni boshqa kartinalar qatorida alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, sarlavha film haqida ma’lum bir axborotni ham o‘z ichiga oladi, bu esa uning yana bir muhim funksiyasi bo‘lmish axborot yetkazish funksiyasini ifodalaydi. [6; 77-81]

Ba’zi tadqiqotchilar esa o‘zlarining ishlarida film nomlarini tavsiflashda “filmonim” atamasidan ham foydalangandirlar. [3; 17]

Kinematografiya - bu zamonaviy san'atning eng mashhur va ayni paytda eng yangi yo'nalishlaridan biridir. Har yili dunyo bo'ylab turli mavzularga bag'ishlangan minglab filmlar keng ommaga namoyish etiladi. Biroq filmning ommalashuvi ko'pincha, eng avvalo, uning sarlavhasiga bog'liq bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, gazeta va jurnallar o'quvchilarining taxminan 80 foizi avvalo sarlavhalarga e'tibor qaratadi. [5; 2]

Bir xil filmning nusxalari turli mamlakatlarda turlicha nomlar bilan namoyish etilgani ba'zan chalkashliklarga olib kelgan. Masalan, Umberto Lentsining italiyalik dahshat janridagi filmi "Zombi shahri" Ispaniyada "Atom zombilarining bosqini" nomi bilan, Germaniyada esa "Zombilarning ommaviy hujumi" deb namoyish etilgan. AQShda ushbu filmni "Tushkunlik shahri", Fransiyada esa "Apokalipsis samolyoti", Britaniyada esa "Yuruvchi o'liklar shahri" degan sarlavhalar bilan tomoshabinlarga taqdim etilgan. [2]

Ye.V. Knish filmonimning uch asosiy funksiyasini ajratib ko'rsatadi: nomativ, kommunikativ va estetik funksiyalar. [3]

Nomativ funksiya shundan iboratki, filmonim onomastik maydonning tarkibiy elementi hisoblanadi. Shu boisdan, filmonim onim, ya'ni egalik nomi sifatida qaraladi.

Kommunikativ funksiya ham filmonim uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, unda ma'lum bir axborot mujassam bo'ladi, bu axborot potensial retsipient - ya'ni, bu holatda, tomoshabin tomonidan qabul qilinadi. Kommunikativ funksiya quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi:

- referensial funksiyasi - film syujeti va uning nomi o'rtasidagi bog'liqlikka ishora qiladi;
- axborotiy-prognostik funksiya - film nomi orqali asosiy g'oyani ishora vositasida yetkazish;
- pragmatik funksiya - filmonimning tomoshabinga ta'sir etishi, unga film nomining mazmuniy mosligi haqida shaxsiy fikr shakllantirishga imkon berishi.

Uchinchi funksiya - estetik funksiyadir. Uning mohiyati shundan iboratki, film nomida real hayotga nisbatan estetik munosabat ifodalanadi.

Olimlarning tarjimada kognitiv yondashuvga bo'lgan qiziqishi ham tobora ortib bormoqda, chunki zamonaviy gumanitar fanlar holati, bir tomonidan, va tez o'zgarayotgan dunyoning real shart-sharoitlari, boshqa tomonidan, nafaqat ilgari ma'lum bo'lgan, balki bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan muammolarga zamonaviy nuqtai nazardan yondashishni talab etmoqda.

Ingliz tilidagi ekvivalenti yo'q realiyalarni to'g'ri tarjima qilish esa ancha murakkab vazifadir. Bu boradagi yechim tarjimon oldiga qo'yilgan asosiy maqsadga bog'liqdir ya'ni lingvistik birlikning milliy rang-barangligini saqlagan holda semantik ma'noga ozgina putur yetkazish, yoki agar realiya o'quvchiga noma'lum bo'lsa, uning mohiyatini ochib berish, lekin bu bilan uning milliy rangini yo'qotish.

M.A. Kulinich o‘zining “Film nomlarini tarjima qilish haqida yana bir bor” nomli ishida film sarlavhasining bajaradigan to‘rtta asosiy funksiyasini ajratib ko‘rsatadi. [4; 112-123.]

1. Signal funksiyasi. Ushbu funksiya kontent iste’molchisining e’tiborini jalg qilish uchun xizmat qiladi. Filmning qisqa va lo‘nda sarlavhasi bu holatda “signal” sifatida chiqadi — u potentsial tomoshabinni jalg etishga qaratilgan.

2. Axborot funksiyasi. Bu funksiya orqali filmning asosiy g‘oyasi tomoshabinga yetkaziladi, u filmning ehtimoliy syujeti haqida umumiylasavvur beradi.

3. Mazmuniy funksiyasi. Bu funksiya film haqida umumiylasavvur, ammo kam bo‘lmagan ahamiyatga ega axborotni o‘zida mujassam etadi. Film nomi qanday bo‘lmasin, u ma’lumot tashuvchi birlik bo‘lib, tilning bir qismi sifatida shu maqsadga xizmat qiladi. Ayniqsa, film kontekstida bu syujetga oid dastlabki va yuzaki ma’lumot bo‘ladi.

4. Tematik funksiyasi. Bu funksiya tomoshabinga voqealarni toraytirib tushunishga yordam beradi - masalan, asosiy qahramonlarni ajratish, filmni boshqalaridan farqlash, undagi voqealar, personajlar yoki joylashuv haqida umumiylasavvur berish vazifasini bajaradi.

Shuningdek, film nomlarining turli turlari ham ajratib ko‘rsatiladi. Masalan, M.A. Kulinich fikricha, kinoindustriyadagi barcha film nomlarini uch asosiy turkumga bo‘lish mumkinligini takidlab o‘tgan:

1. Oddiy (yakkalik) nomlar – bitta so‘zdan iborat bo‘ladi;
2. Ikki so‘zli nomlar – ikki so‘zdan tashkil topgan bo‘ladi;
3. Ko‘p so‘zli nomlar – uch va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘ladi. [4; 112-123.]

Shunday ekan, film nomi badiiy asar sarlavhasiga yaqin bo‘lgan hodisa ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Uning o‘rganilishi uning maqomi, funksional xususiyatlari, mazmuni, g‘oyasi va asosiy fikrining ifodalananish shakllari, shuningdek, uni talqin qilish va tushunishdagi murakkabliklar bilan bevosita bog‘liqidir. Film sarlavhasi filmning butun axborot tizimini bog‘lab turuvchi asosiy element sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Алексеева И.С. Профессиональный тренинг переводчика: учеб. пособие по устному и письменному переводу для переводчиков и преподавателей / И.С. Алексеева. СПб.: Союз, 2008. 288 с.
2. Город зомби (материал из Википедии — свободной энциклопедии // [Электронный ресурс]. — режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki/Город_зомби — дата доступа: 13.03.2018.
3. Кныш Е. В. Лингвистический анализ наименований кинофильмов в русском языке. – 1992.

4. Кулинич, М.А. Еще раз о переводе названий // Лингвистические основы межкультурной коммуникации. – Нижний Новгород, 2005. – С. 112-123.
5. Ожегов С.И. Словарь русского языка. М.: Русский язык, 1984. 797 с.
6. Подымова, Ю.Н. От библионимов к фильмонимам: к истории изучения. – 2007. – С. 77-81.
7. Черкасский, Л. Начнем с заглавия. Иностранный литература. – М., 1986. – № 5. – С. 225-230.